



MUHAMMAD ABDO'S REFORMIST IDEAS AND MODERNISM TRENDS IN XX CENTURY ARAB PHILOSOPHY

Nusrat Khamroyev

(PhD) Researcher

International School of Finance Technology and Science Institute

Uzbekistan

e-mail: hamroyevnusrat61@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Muhammad Abdo, Islamic Reform, Arab Philosophy, Modernism, Comparative Analysis, 20th Century, Religious Reform, Social Reform, Political Reform, Arab World

Received: 27.03.25

Accepted: 29.03.25

Published: 31.03.25

Abstract: This article examines the reformist ideas proposed by Muhammad Abdo and their influence on the development of modernist movements in 20th-century Arab philosophy. The article analyzes Abdo's views on religious, social, and political reforms, and explores the role of his ideas in shaping modernism in the Arab world. Furthermore, the article provides a comparative analysis of various modernist currents in 20th-century Arab philosophy, their main characteristics, and their interrelation with Abdo's ideas. The research results indicate that Muhammad Abdo's ideas served as an important impetus for Arab modernism and significantly influenced the views of subsequent thinkers.

MUHAMMAD ABDONING ISLOHOTCHI G'OVYALARI VA XX ASR ARAB FALSAFASIDAGI MODERNIZM OQIMLARI

Nusrat Hamroyev

(PhD) tadqiqotchi

International School of Finance Technology and Science Institut

O'zbekiston

e-mail: hamroyevnusrat61@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Muhammad Abdo, islom islohotchiligi, arab falsafasi, modernizm, qiyosiy tahlil, XX asr, diniy islohot, ijtimoiy islohot, siyosiy islohot, arab dunyosi

Annotatsiya: Ushbu maqola Muhammad Abdo tomonidan ilgari surilgan islohotchilik g'oyalarni va XX asr arab falsafasidagi modernizm oqimlarining rivojlanishiga ta'sirini o'rGANADI. Maqolada Abdoning diniy, ijtimoiy va siyosiy islohotlar haqidagi

qarashlari tahlil qilinadi hamda uning g‘oyalari arab dunyosida modernizmni shakllantirishda qanday rol o‘ynaganligi ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada XX asr arab falsafasidagi turli modernizm oqimlari, ularning asosiy xususiyatlari va Abdo g‘oyalari bilan o‘zaro aloqalari qiyosiy tahlil qilinadi. Muhammad Abdo g‘oyalari arab modernizmi uchun muhim turtki bo‘lgan va keyingi davr mutafakkirlarining qarashlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

РЕФОРМАТОРСКИЕ ИДЕИ МУХАММАДА АБДО И МОДЕРНИЗМСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В АРАБСКОЙ ФИЛОСОФИИ ХХ ВЕКА

Нусрат Хамроев

(*PhD*) исследователь

International School of Finance Technology and Science Institut

Узбекистан

E-mail: hamroevnusrat61@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Мухаммад Абдо, Исламская реформа, Арабская Философия, Модернизм, Сравнительный анализ, ХХ век, Религиозная реформа, Социальная реформа, Политическая реформа, Арабский мир

Аннотация: Данная статья исследует реформаторские идеи, предложенные Мухаммадом Абдо, и их влияние на развитие модернистских течений в арабской философии ХХ века. В статье анализируются взгляды Абдо на религиозные, социальные и политические реформы, а также рассматривается роль его идей в формировании модернизма в арабском мире. Кроме того, в статье проводится сравнительный анализ различных модернистских течений в арабской философии ХХ века, их основных характеристик и взаимосвязи с идеями Абдо. Результаты исследования показывают, что идеи Мухаммада Абдо послужили важным стимулом для арабского модернизма и оказали значительное влияние на взгляды мыслителей последующего периода.

KIRISH

XX asrning boshlarida arab dunyosi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarda tub o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. G‘arb imperializmining kuchayishi, millatchilik harakatlarining rivojlanishi va modernizatsiya jarayonlarining jadallahushi arab jamiyatlarida yangi intellektual va g‘oyaviy-mafkuraviy oqimlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bunday murakkab vaziyatda Muhammad Abdo (1849-1905) kabi islohotchi ma’rifatparbarlarning faoliyati alohida ahamiyat

kasb etadi. Uning intellektual merosi arab dunyosida modernizmni shakllantirishga chuqr ta'sir ko'rsatdi.

Muhammad Abdo, misrlik islom olimi, huquqshunos va islohotchi sifatida islomiy ta'limotlarni zamonaviy talablarga moslashtirish, ijtimoiy taraqqiyotga erishish va G'arb ta'siriga qarshi kurashishga intildi. O'zining ilmiy faoliyati davomida Abdo islomiy aqidalarni qayta talqin qilish, aql va vahiy o'rtasidagi uyg'unlikni targ'ib qilish, ijтиҳод (mustaqil huquqiy fikrlash) tamoyilini qo'llash vaadolatli ijtimoiy tuzumni yaratishga qaratilgan muhim masalalarni o'rta ga tashladi. Uning g'oyalari arab ziyolilari va mutafakkirlari orasida keng tarqaldi va arab modernizmining intellektual asosi sifatida xizmat qildi.

YUNESKO ning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, arab davlatlarida aholi soni 1950-yildan 2020-yilgacha 7 barobar o'sdi, bu esa demografik bosimning kuchayishiga, ta'lim va ish bilan ta'minlash sohalarida yangi muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ayni paytda, G'arbning madaniy va iqtisodiy ta'siri kuchayib bordi, bu esa arab jamiyatlarida o'ziga xoslikni saqlab qolish bo'yicha yangi savollarni tug'dirdi. Misol uchun, Amin Malouf o'zining "Shaxsiyat nomidan: zo'ravonlik va tegishlilik zarurati" (In the Name of Identity: Violence and the Need to Belong) asarida bu muammolarni shunday tasvirlaydi: "Biz o'z ildizlarimizni unutmasligimiz, lekin shu bilan birga zamonaviy dunyoga integratsiyalashuvimiz kerak" (Malouf, 2000, p. 25).

Hozirda ham Muhammad Abdoning islohotchi g'oyalari dolzarb bo'lib qolmoqda. U o'zining "Risalat at-Tavhid" (رسالة التوحيد) asarida islomiy ta'limotlarning asl mohiyatini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlagan (Abdo, 1900). Abdoning g'oyalari arab dunyosida modernizmni shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatganligini tushunish uchun uning intellektual merosini chuqr tahlil qilish zarur.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu maqola Muhammad Abdoning islohotchilik g'oyalarini va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Maqolada Abdoning diniy, ijtimoiy va siyosiy islohotlar haqidagi qarashlari tanqidiy tahlil qilinadi va uning g'oyalari arab dunyosida modernizmni shakllantirishda qanday rol o'ynaganligi baholanadi. Bundan tashqari, maqolada XX asr arab falsafasidagi turli modernistik oqimlar, ularning asosiy xususiyatlari va Abdoning g'oyalari bilan aloqasi qiyosiy tahlil qilinadi. Juhon bankining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, arab davlatlari 2030-yilgacha suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi va demografik o'zgarishlar kabi bir qator jiddiy muammolarga duch keladi. Ushbu muammolarni hal qilishda Muhammad Abdoning islohotchi g'oyalari hamon dolzarb bo'lib qolishi mumkin, chunki u an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish yo'llarini taklif qiladi. Ushbu maqola arab falsafasi tarixini chuqrroq tushunishga va arab dunyosidagi modernizatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

ASOSIY QISM

Tadqiqotimiz davomida Muhammad Abdoning islohotchi g‘oyalari va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta’sirini o‘rganishga qaratilganligi sababli, adabiyot tahlili mavzuga oid asosiy manbalar va ilmiy adabiyotlarni aniqlash hamda tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, maqolaning metodologiyasi ushbu mavzuni o‘rganish uchun qo‘llanilgan metodlar va yondashuvlarni belgilaydi. Muhammad Abdoning “Risalat at-Tavhid” (رسالة التوحيد) asari asosiy adabiyotlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda Muhammad Abdoning hayoti va faoliyatiga muallifning yozgan asarlari, tarjimai holi va faoliyati haqida keng qamrovli ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Xolid Muhammad Xolidning “Muhammad Abdo: Jadidul Islom” (محمد عبدو: جدید الإسلام) asari Abdoning modernistik g‘oyalari, islohotchi qarashlari va arab dunyosiga ta’siri haqida asosiy ma’lumotlarni yoritish orqali uning hayoti va faoliyati haqida batafsil ma’lumotlarni berib o‘tadi. (Khaled, K.1966)

Albert Xuraniyning “Arabic Thought in the Liberal Age, 1798-1939” (Liberal davrda arab fikri, 1798-1939) asari ham muhim manba sifatida keltirishimiz mumkin. Muallif arab dunyosida millatchilik, liberalizm va islam islohotining rivojlanishini tahlil qiladi va bu g‘oyalarning arab jamiyatiga ta’sirini ochib berishga harakat qilgan. Shungdek, arab dunyosida modernizatsiya va islohot g‘oyalarining rivojlanishini tadqiq qilganligini guvohi bo’lishimiz mumkin (Albert Hourani, 1962). Yuqorida keltirib o’tgan ilmiy materiallar islam islohoti va modernizatsiya o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning arab jamiyatlaridagi o‘rnini hamda Abdoning islohotchi g‘oyalarining ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotning sifati va natijasi izlanishda qo‘llaniladigan vosita va usullarga bog’liq. Shu bois, fanda tadqiqot vositalari, texnologiyasi va usullariga e’tibor har doim katta bo’lgan. O’rganilayotgan ob’yekt qanchalik murakkab bo’lsa, uning xossalari va qonuniyatlarini ochish uchun qanday vosita, asos yoki usulni ishlatalish masalasi dastlab hal qilinishi kerak bo’lgan metodologik muammoga aylanadi. Mazkur muammo xususida mulohaza yuritish metodologiyani, ya’ni, metodologik bilim darajasini (qatlamini) tashkil qiladi. Tadqiqotimizi davomida ilmiy bilishning qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tarixiylik, mantiqiylik, dialektik, kutubxona metodlaridan foydalangan holda mavzuda qo‘yilgan muommoni yechishga harakat qilindi. Shuningdek, tadqiqotning maqsadlariga erishish va Muhammad Abdoning islohotchi g‘oyalari va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta’siri haqida yangi bilimlar yaratish imkonini beradi. Muhammad Abdoning islohotchi g‘oyalari va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta’siri haqida chuqrurq tushuncha beradi.

Muhammad Abdoning islohotchi g‘oyalari islam dinini zamonaviy talablarga moslashtirish, aql va vahiy o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, ijтиҳод (mustaqil fikrlash) tamoyilini qo‘llash va jamiyatda adolatni o‘rnatishga qaratilganligi Abdoning islohotchi g‘oyalarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Abdo o‘zining “Risalat at-Tavhid” asarida islomiy ta’limotlarning

asl mohiyatini qayta ko'rib chiqish va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlagan. Kontent-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Abdoning asarlarida aql, ilm, ta'lif va axloqiy qadriyatlar muhim o'rinni egallaydi. Muhammad Abdoning g'oyalari XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Abdoning g'oyalari arab ziyolilari va mutafakkirlari orasida keng tarqalib, arab modernizmining intellektual asosi sifatida xizmat qilgan. Qiyosiy tahlillar orqali arab modernizmining turli oqimlari (masalan, liberalizm, millatchilik, sotsializm) Abdoning g'oyalardan ilhomlangan va ularni o'z qarashlariga moslashtirganligini ko'rsatadi. Misol uchun, liberal arab mutafakkirlari Abdoning aql va ilmga urg'u berishidan ilhomlanib, jamiyatda erkinlik va demokratiyani targ'ib qilgan. Yuqorida keltirilgan fikrlar Muhammad Abdoning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta'siri ifodasi sifatida ko'rishimiz mumkin.

Arab modernizmining asosiy xususiyatlari G'arb ta'siriga qarshi kurashish, o'ziga xoslikni saqlab qolish, ijtimoiy taraqqiyotga intilish va islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirishdan iborat. Tarixiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Abdoning g'oyalari arab modernizmining ushbu xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Shu o'rinda Albert Xuraniyning "Liberal davrda Arab tafakkuri, 1798-1939" (Arabic Thought in the Liberal Age, 1798-1939) asaridan quyidagicha iqtibos keltirishni joiz deb topdik: "Muhammad Abdo arab dunyosida modernizatsiya va islohot g'oyalarining rivojlanishida muhim rol o'ynadi" (Hourani, 1983, p. 230). Bu esa Arab modernizmi xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishida Muhammad Abdoning g'oyalarining ta'siri va aloqadorligini ifodalaydi.

Tadqiqot davomida to'plangan statistik ma'lumotlar arab dunyosida ta'lif darajasining oshishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va G'arb madaniyatining ta'siri ortishi kabi tendensiyalarni ko'rsatdi. Bu tendensiyalar arab modernizmining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan va Muhammad Abdoning g'oyalarining dolzarbligini oshirgan. YUNESKO ning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, arab davlatlarida savodxonlik darajasi 1970-yildan 2020-yilgacha 30 foizdan 80 foizgacha o'sdi, bu esa ta'lifning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini ko'rsatadi (YUNESKO hisoboti).

Umuman olganda, Muhammad Abdoning islohotchi g'oyalari va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta'siri haqida yangi ilmiy xulosalar arab falsafasi tarixini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Abdoning islohotchi g'oyalarini va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan, olingan natijalar ushbu mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va nazariy qarashlar bilan bog'liq holda muhokama qilinadi.

Muhammad Abdoning islohotchi g'oyalari islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirish, aql va vahiy o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, ijтиҳод (mustaqil fikrlash) tamoyilini qo'llash va jamiyatda adolatni o'rnatishga qaratilgan. Bu g'oyalar XX asr arab falsafasidagi modernistik

oqimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va arab modernizmining intellektual asosi sifatida xizmat qilgan.

Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar Albert Xuraniyning "Liberal davrda Arab tafakkuri, 1798-1939" asarida bayon etilgan qarashlar bilan mos keladi. Xuraniy o'z asarida Muhammad Abdoning arab dunyosida modernizatsiya va islohot g'oyalarining rivojlanishida muhim rol o'ynaganligini ta'kidlaydi (Hourani, 1983). Bundan tashqari, tadqiqot natijalari Jorj Tarabishining "Arab dunyosidagi demokratik muommolar" (إشكالية الديمقراطية في الوطن العربي) asarida ilgari surilgan qarashlar bilan ham bog'liq. Tarabishi arab ilmiy falsafasini tahlil qilar ekan, arab modernizmining turli jihatlarini tanqidiy baholaydi va Muhammad Abdoning g'oyalarining ahamiyatini e'tirof etadi (Tarabishi, 1998).

Shuningdek, arab modernizmining asosiy xususiyatlari G'arb ta'siriga qarshi kurashish, o'ziga xoslikni saqlab qolish, ijtimoiy taraqqiyotga intilish va islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirishdan iborat ekanligini ko'rsatdi. Bu xususiyatlar Muhammad Abdoning g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning islohotchi qarashlari arab modernizmining yo'nalishini belgilashda muhim rol o'ynagan. Arab modernizmining quyidagi 3 ta yo'nalishini ta'kidlab o'tishimizni o'rinali deb topdik:

1. Zamonaviy arab falsafasidagi modernistik oqimlarni o'rganish va ularning Muhammad Abdoning g'oyalari bilan aloqasini aniqlash.

2. Arab dunyosida globalizatsiya va postmodernizmning ta'sirini o'rganish va ularning islohot g'oyalariga ta'sirini baholash.

3. Empirik tadqiqotlar o'tkazish va arab ziyolilari, mutafakkirlari va jamiyatining keng qatlamlari orasida Muhammad Abdoning g'oyalariga bo'lgan munosabatni aniqlash.

"Al-Urva al-Wuthqa" jurnalida chop etilgan maqolalarda aytishicha, "Muhammad Abdo islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirishga harakat qildi va jamiyatda adolatni o'rnatishga intildi". Bu iqtibos Abdoning islohotchi g'oyalarining mohiyatini aks ettiradi va ularning zamonaviy ahamiyatini ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot Muhammad Abdoning islohotchi g'oyalarini va ularning XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilgan. Adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, tarixiy tahlil va kontent-tahlil kabi bir qator metodologik yondashuvlar orqali maqola arab falsafasi tarixi va zamonaviy arab jamiyatlaridagi islohot jarayonlari haqida muhim xulosalarga kelindi.

Maqola natijalari shuni ko'rsatdiki, Muhammad Abdoning islohotchi g'oyalari islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirish, aql va vahiy o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, ijтиҳод (mustaqil fikrlash) tamoyilini qo'llash va jamiyatda adolatni o'rnatishga qaratilgan bo'lib, bu g'oyalar XX asr arab falsafasidagi modernistik oqimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Arab ziyolilari

va mutafakkirlari orasida keng tarqalgan bu g‘oyalar arab modernizmining intellektual asosi sifatida xizmat qildi.

Arab modernizmining asosiy xususiyatlari G‘arb ta’siriga qarshi kurashish, o‘ziga xoslikni saqlab qolish, ijtimoiy taraqqiyotga intilish va islom dinini zamonaviy talablarga moslashtirishdan iborat ekanligi aniqlandi. Muhammad Abdoning islohotchi qarashlari arab modernizmining ushbu xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi bildirilgan mulohazalardan kelib chiqib, Muhammad Abdoning aql, ilm va ta’limga urg‘u bergen islohotchi g‘oyalari zamonaviy arab jamiyatlarida dolzarb bo‘lib qolmoqda. Uning g‘oyalari arab dunyosida modernizatsiya jarayonlarini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish va zamonaviy muammolarni hal qilish uchun muhim intellektual resurs bo‘lishi mumkin. Maqola Muhammad Abdoning merosini yanada chuqur o‘rganish va uning g‘oyalarini zamonaviy dunyoga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdo, M. (1900). رسالة التوحيد. القاهرة: المنار. (*Risalat at-Tawhid. Qohira: Al-munari*).
2. Hourani, A. (1983). *Arabic Thought in the Liberal Age, 1798-1939*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Khaled, K. M. (1966). محمد عبد: جديد الإسلام. القاهرة: دار الكتاب العربي. (*Muhammad Abdo: Jadidul Islam*. Cairo: Dar al-Kitab al-Arabi).
4. Tarabishi, G. (1998). إشكالية الديمقراطية في الوطن العربي. عمان: منتدى عبد الحميد شومان الثقافي. (Ishkaliyyat al-dimuqratiyyah fi al-watan al-arabi. Amman: Muntada 'Abd al-Hamid Shoman al-thaqafi).
5. YUNESKO. (2023). *Education for All Global Monitoring Report*. Paris: UNESCO. Internet manbaa. URL: <https://www.unesco.org/gem-report/en>
6. Jahon banki. (2024). *Arab World Economic Update*. Washington, D.C.: World Bank Group. Internet manbaa. URL: <http://worldbank.org/en/region/mena/publication/middle-east-and-north-africa-economic-update>